

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.O.Baltabayeva, O.A.Komiljonova

Franshizalarni ochish va ular bilan samarali ishslash - biznesni rivojlantirishning omili sifatida 6

A.Y.Toyirov S.R.Shodiyev

Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishslash sanoatining o'rni 9

A.Y.Toyirov

Hududiylar iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda infratuzulmaning o'rni 16

FALSAFA**A.A.Qambarov**

Abdulla Avloniy o'zbek millatining ma'rifatparvar ziyolisi..... 21

G.T.Kabulniyazova

Uyg'onish davri falsafasining mashhur vakili Nikolay Kuzanskiyning panteistik ontologiyasi 27

X.N.Xolmirzaev

Sun'iy intellekt tizimlarida ijtimoiy me'yorlar va inson qadriyatlarining ahamiyati..... 32

S.S.Evato

O'rta asr sharq faylasuflari ta'limotlaridagi gnoseologik va teologik qarashlarning qiyosiy tahlili.... 37

I.A.Asatulloev

Erix fromm ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida inson tabiat deformatsiyasi..... 40

B.X.Tolipov

Yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom axloqiy-iqtisodiy raqobat asosida rivojlantirishning falsafiy jihatlari 46

Sh.Q.Oxunova

Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni shakllantirishning sinergetik strategiyasi 50

M.K.Soipova

Fazl Ibn Axmadning ontoljik qarashlari..... 54

L.K.Axatov

Irfoniylar qarashlarning falsafiy mazmun-mohiyati (mutafakkirlar asarlarining tahlili asosida)..... 59

J.A.Mamanov

Yoshlarda ma'naviy madaniyatni yuksaltirishning milliy va umuminsoniy tamoyillari 63

I.I.Umrzakov

Xalq musiqa ijodiga doir falsafiy-madaniy yondashuvlar..... 70

Sh.A.Ismailov

Yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy himoya va ijtimoiy siyosat yuritishning asosiy omillari 74

R.S.Raupova

Abu Ali Ibn Sinoning ma'naviy-axloqiy qarashlarining mamlakatimiz rivojida tutgan o'rni 78

M.A.Rahmonova

Abdurauf Fitrat ma'naviy-axloqiy qarashlarini yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'rni 84

D.V.Vohidova, O.L.Berdiyev

Turkiy tasavvufning buyuk namoyandası..... 92

B.B.Dehqonov

Yangi O'zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini qurishda Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi bag'rikenglik g'oyalalarining o'rni va ahamiyati 96

A.Z.Sharipov

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi-yurtimizda inson qadrini oshirish hamda ma'naviy salohiyatni yuksaltirishdagi islohotlar assosi sifatida..... 102

L.B.Ikromova

Zamonaviy o'zbek falsafasida gnoseologik muammolarning yoritilishi..... 107

A.X.Amonlayev, M.Y.Sultonov

Islam qadriyatlarida shaxs ma'naviyati haqidagi qarashlarning gumanistik mohiyati 111



UO'K: 929Avloni + 37(091)

ABDULLA AVLONIY O'ZBEK MILLATINING MA'RIFATPARVAR ZIYOLISI

АБДУЛЛА АВЛОНИ УЗБЕКСКОГО НАРОДА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ПРОСВЕЩЕНИЯ

ABDULLAH AVLONI OF THE UZBEK PEOPLE INTELLECTUAL OF ENLIGHTENMENT

Qambarov Abdumutal Axadjonovich 

Farg'onan davlat universiteti professori, falsafa fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek jadidchiligining shakllanishi va uning mazmun-mohiyati, tarixiy ildizlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o'zbek jadidchiligiga asos solgan, buyuk mutafakkir-olim, shoir, dramaturg, aktyor, tarjimon, musiqashunos, jurnalist, qisqa qilib aytganda o'z davri madaniyatining targ'ibotchisi hamda ma'rifatparvar ziyyolilaridan biri bo'lgan Abdulla Avloniyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari asarlarida o'z aksini topganligi, shu bilan birga XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jadidchilikning rivojlanishiga munosib xissasini qo'shgan Abdulla Avloniyning faoliyati yoritib beriladi.

Annotatsiya

В данной статье анализируется формирование узбекского джадидизма, его сущность и исторические корни. Также социально-философские взгляды Абдуллы Авлони, основоположника узбекского джадидизма, великого мыслителя-ученого, поэта, драматурга, актера, переводчика, музыковеда, журналиста, словом, пропагандиста культуры своего времени и одного из просвещенной интеллигенции, нашли отражение в его произведениях, в то же время освещена деятельность Абдуллы Авлони, внесшего значительный вклад в развитие джадидизма в конце 19 - начале 20 веков.

Abstract

This article analyzes the formation of Uzbek Jadidism, its essence and historical roots. Also, the social and philosophical views of Abdulla Avloni, the founder of Uzbek Jadidism, a great thinker-scientist, poet, playwright, actor, translator, musicologist, journalist, in a word, a propagandist of the culture of his time and one of the enlightened intelligentsia, were reflected in his works, at the same time The work of Abdulla Avloni, who made a significant contribution to the development of Jadidism in the late 19th and early 20th centuries, is covered.

Kalit so'zlar: jadidchilik, prosveshenist, chorizm, ma'rifiy, ijtimoiy, madaniy, prosveshenskoe, muxtoriyat, fan, qashshoqlik, texnologiya, jadidchilik usuli, partiya (qism).

Ключевые слова: жадидизм, просвещенец, царизм, просвещение, общественное, культурное, просвещенское, автономия, наука, бедность, техника, метод жадидизма, партия (часть).

Key words: jadidism, prosveshenist, tsarism, enlightenment, social, cultural, prosveshenskoe, autonomy, science, poverty, technology, method of jadidism, party (part).

KIRISH

Abdulla Avloniy (1878-1934) o'tgan asrning boshlarida uyg'onish davri arboblari singari shoir, dramaturg, aktyor, tarjimon, musiqashunos, jurnalist, qisqa qilib aytganda o'z davri madaniyatining targ'ibotchisi hamda ma'rifatparvar ziyyolilaridan biri bo'lgan. U O'rta Osiyo ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida muhim o'r'in tutgan jadidchilik harakati, adabiyoti va san'atining yirik namoyondalaridan bo'lib, adabiyot bilan birga milliy teatr va musiqa san'ati ravnaqi hamda xalqimizni ma'naviy qashshoqlikdan qutqarish, umumxalq madaniyatini yuksaltirish yo'lida jonbozlik ko'rsatgan jadid yo'lboshchilaridan biri desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Abdulla Avloniy hayoti va ijodiy faoliyati yurtimizda ijtimoiy va inqilobiy kurashlar kuchaya boshlagan bir sharoitda o'tdi. Shunday sharoitda ham o'z xalqini milliy va ijtimoiy zulmdan ozod etish uchun ilg'or madaniyatni vatandoshlari o'rtasida yoyish, xalqni savodli qilish uchun turli yo'llar bilan faol kurash olib bordi. Bugungi kungacha adiblarimiz hamda tadqiqotchilarimiz Abdulla Avloniyini ma'rifatparvar shoir sifatida o'rganishgan [1,290]. Lekin, barcha faylasuf mutafakkirlar singari Abdulla Avloniyning ham o'ziga yarasha jamiyat ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotiga nisbatan falsafiy qarashlari bo'lgan. Uning falsafiy qarashlari barkamol shaxs va uning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, ta'lim, maorif, teatr va musiqa san'ati sohalarida o'z aksini topgan.

Abdulla Avloniyning ko'p qirrali faoliyatida yoshlarga ta'lim-tarbiya berish masalasi muhim ahamiyat kasb etgan. Millatimizning ilg'or kishilari qatori Abdulla Avloniy ham Vatanning kelajagi yoshlar tarbiyasiga bog'liq ekanini, ularning ma'nnaviy barkamolligi yangi jamiyatning madaniy darajasini belgilashini chuqur anglagan.

Tarbiya chinakam tarbiya bo'lsagina yuksak ezzulik, aks holda u xech narsaga yaramaydi, - degan edi ma'rifatparvar, pedagog olim Abdulla Avloniy. Darhaqiqat, buyuk ma'rifatparvarning ushbu ibratli so'zlari asrimizning boshida yoshlarimiz ta'lim-tarbiyasida nechog'li muhim va ahmiyatli hisoblangan bo'lsa, bugungi kunda ham uning ahamiyati sira kam emas, aksincha u yanada yuksak va qadrlidir. Ko'rinish turibdiki, Avloniyning falsafiy qarashlarida ta'lim-tarbiya, yoshlarni bilimli qilish asosiy mezon hisoblanadi. Chunki, ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi.

Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan so'zlari o'tkan asrning boshida millatimiz uchun qanchalik muhim dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtida ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi[2,62].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ /METHODS)

Mazkur maqolani yozishda mavzuga tegishli bo'lgan bir qator adabiyotlar ko'rib chiqildi va tahlil qilindi. Jumladan, Turkiston jadidchiligiga hamda Abdulla Avloniy ijodiga tegishli bo'lgan monografiya, ilmiy to'plam va maqolalarda o'z aksini topgan jadid ma'rifatparvarligining ijtimoiy-falsafiy jihatlari o'rganildi. Shu bilan birga Sh.Mirziyoyevning "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug'", hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi", Sh.Yusupov muharrirligi ostidagi "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti", I.A.Karimovning "Yuksak ma'nnaviyat – engilmas kuch", Abdulla Avloniyning tanlangan asarlar. 2-jiddlik to'plami, B.Abdulxayrovning "Miyon Buzruk – jadid dramaturgiysi va teatri tadqiqodchisi", M.Rahmonovning "O'zbek teatri tarixi" nomli asarlari va Y.Tohiriynning "Dono murabbiy" nomli va G.Boynazarovaning "Abdulla Avloniyning musiqa san'atida tutgan o'rni" mavzudagi ilmiy maqolalari tahlil qilindi. Shuningdek, maqolani yozish jarayonida qiyosiy tahlil, tizimli tahlil, tarixiylik, nazariya bilan amaliyot uyg'unligi, mantiqiy xulosa, obyektivlik usullaridan foydalilanilgan.

Abdulla Avloniyning adabiy va ilmiy merosi nihoyatda boy bo'lib, falsafa, axloqshunoslik, pedagogika va boshqa sohalarni (teatr, musiqa san'atini ham) qamrab olgan. U "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy guliston yohud axloq" kabi asarlarida o'zining ta'lim-tarbiya borasidagi fikrlarini bayon etadi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS)

1904 yilda Abdulla Avloniy Mirobod mahallasida ko'pgina ma'rifatparvar ziyorolar qatori yangi usuldagи maktab ochadi. Toshkent davlat universitetida (hozirgi Milliy universitet) uzoq yillar dars bergen taniqli pedagog, marhum Yunus Tohiriy mazkur maktab haqida shunday yozgan edi:

Shaharning qarama-qarshi chekkasida, temir yo'l ishchilarini istiqomat qiladigan Mirobodda yangi tipdagи maktab ochilganligi haqida eshitib qoldik. Tez orada bu maktabning fazilatlari haqidagi shov-shuvlar, uning muallimi Avloniyning dovrug'i butun shaharga tarqaldi. Hammaning tilida: "Miroboddagi maktab 6 oyda o'qish yozishni o'rgatarmish, jug'rofiya, hisob, tabiatni o'rganish degan darslar o'qitilarmish", - degan gap yurardi. Bizga juda sirli tuyulgan bu maktabni va uning donishmand muallimini ko'rishga hammamiz oshiqardik. Nihoyat bir kuni uch-to'rttamiz borishga jazm qildik. ... O'qishga qabul qilindik. Ko'p o'tmay ko'z oldimizda yangi bir dunyo ochilganiga to'la ishonch hosil qildik. Ular (Abdulla Avloniy A.Q.) o'qish-yozishda, hisob masalalarini hal etishda, tabiat hodisalaridan xabardor bo'lishlari, juda ko'p she'r va hikoyalarni yod bilishlari bilan hammamizni lol qoldirdi. Ayni zamonda bizning eski maktabimiz bo'shab, Miroboddagi Abdulla Avloniy maktabi bizdan borgan bolalar bilan liq to'ldi. Shu tariqa bu maktab tobora shuhrat topib bordi[3].

Xalqni bilimli va ilmli qilish uchun faqat ta'limning o'zi etarli emasligini tushunib etgan Abdulla Avloniy qora xalqni ko'zini ochish uchun gazeta chiqarmoqni munosib ko'rib, 1907 yil 4-dekabrdan o'z uyida o'zining muharrirligida "Shuhrat" gazetasini chiqara boshladi. Gazetaning yo'li ayon bo'lishi bilan do'stidan dushmani ko'payib bordi. Buning natijasida gazeta 10-soniga etganda davrning ma'murlari tomonidan yopib qo'yiladi. Mazkur gazeta o'zbek milliy matbuotining daslabki namunalari bo'lganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

FALSAFA

Abdulla Avloniy 1914-1915 yillar mobaynida "Sadoyi Turkiston" nomli gazetada millatparvar va taraqqiyat parvar Ubaydulla Xo'jayev bilan hamkorlik qiladi. Gazetada chop etilgan she'r va maqolalarning aksariyati Avloniy qalamiga mansub bo'lgan. Lekin gazetaning faoliyati uzoq davom etmaydi. Uning 66-soni chop etilgandan so'ng gazeta moddiy qiyinchilik natijasida tanazzulga uchraydi.

XX asr boshida Turkistonning bir necha yirik shaharlarida turli millat teatr truppalarini, xususan, tatar, arman, ozarbayjon, rus san'atkorlari o'zlarining ijodiy safarini uyuştirishgan. Ijodiy safarga kelgan teatr truppalarining chiqishlari Abdulla Avloniyda juda katta taasurot qoldiradi. 1913 yilning oxirida kelib toshkentlik mashhur jadid – taraqqiyat parvarlarning tashabbuslari bilan "To'ron" jamiyatini maydonga keladi"^[4,10]. Aynan shu "To'ron" jamiyatini qoshida 1914 yilning dastlabki oyida Avloniy birinchi o'zbek teatr truppassi tashkil qiladi va uning rahnamolaridan biriga aylanadi. Aynan mana shu "Turon" jamiyatini truppasida Abdulla Avloniy faoliyat ko'rsatgan va ijodining kuchaygan davri desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Avloniyning teatr truppasida sahnalashtirilgan birinchi asar Behbudiying "Padardarkush"i bo'lgan deyiladi. Lekin "Oyna" jurnalida chiqqan maqolada "Padarkush" birinchi marta sahnaga qo'yilganida unga kim rejissorlik qilgani aytilmagan bo'lsa-da, og'zaki xabarlargacha ko'ra ozarbayjonlik Aliasqar Asqarovning sahnani tartibga solishda roli katta bo'lgan. Minyon Buzruk hatto ushbu shaxsnинг rejissorlik vazifasini bajarganligini o'ziga Abdulla Avloniy so'zlab berganligini xotirlaydi^[5,94]. Lekin teatrshunos M.Raxmonovning ta'kidlashicha, teatr truppassi tashkil qilishda uning asoschilaridan biri bo'lgan Avloniy sahnalashtirishga yordam bergen bo'lishi ham mumkin.

Teatrshunos M.Raxmonovning yozishchicha, Avloniy bosh bo'lgan teatr havaskorlari truppassi 25 kishidan iborat bo'lgan. Jumladan, Ilim bosmahonasining ishchisi Nizomiddin Xo'jayev, maorifchilar: G'ulom Zafariy, Shokirjon Rahimi, Sami'qori, Fuzayl Jonboyev, Hasanqori, xizmatchi Badriddin A'lamo, ish yurituvchilar Muhammadjon Podshoxo'jayev, Qudratilla Yunusiy, Abdurahmon Akbarov, Qudratilla Mahsum kabilalar faoliyat olib borganlar. 1916 yilda truppa Mannon Uyg'ur, Sulaymon Xo'jayevlar a'zo bo'lib kiradilar^[6,334].

Avloniy turkiy xalqlar, jumladan, turk va ozarbayjon, tatar dramaturgiyasini chuqur o'rganadi. Jalil Mamadqulizodaning "O'liklar", "Uy tarbiyasining bir shakli", "Jaholat" dramalarini o'zbekchaga tarjima qilganligi va xalqqa etkazganligi fikrimizning dalilidir. Uning truppadagi faoliyati, jumladan, rejissorlik va aktyorlik mahoratlari haqida 1914-1916 yillarda Toshkent va Farg'onada chiqib turgan gazeta va jurnallarida ko'plab maqolalar yozildi.

Abdulla Avloniy o'zining "Teatr xususida munozara" maqolasida teatr san'atining xalq ongiga ta'siri haqida ta'kidlaganidek, "Tiyotr har bir millatning yamon urf va odatlarini yo'q qilmak uchun, o'zini ahvolini tuzatmak uchun boqadurg'on oyinasidir"^[7,221].

MUHOKAMA

O'sha davrda sahnalashtirilayotgan asarlar mazmuniga e'tibor berilsa, ulardagi asosiy masala ommani jadidlik dasturi bilan tanishtirish va, qolaversa, uni hayotga joriy etish bo'lganligini kuzatish mumkin.

"Turon" truppassi musiqiy yo'lanishini shakllanishida ham Avloniyning o'rni katta. Avloniy musiqaning inson, jamiyat va teatr san'atidagi o'rni va rolini chuqur anglab etgan. Bu xususiyat uning mashhur Ozarbayjon xonandasini Sidqiy Ruhullo bilan hamkorlikda U.Hojibekovning "Layli va Majnun" operasini sahnalashtirishda ham aktyor, ham xormeyster sifatida ishtiroy etishi chog'ida yanada sezildi.

Abdulla Avloniy dastlab musiqani nazariy jihatdan tahlil qilgan bo'lsa, keyinchalik hofizu sozandalar bilan uchrashuvlar, suhbatlar chog'ida milliy musiqa janrlari, yo'llarini o'rganadi, ma'naviy xazinasini milliy kuy nomlari va ohanglari bilan boyitadi, bu bilan kifoyalaniq qolmasdan san'at haqida o'zining tanqidiy mushohadalarini ham rivojlantirib boradi.

Abdulla Avloniy "Adabiyot yohud milliy she'rlar", "Mardikorlar ashulasi" to'plamlarida o'zbek she'riyatining an'anaviy janrlarini mazmunan va shaklan boyitdi. Ularga yangi ma'no va aniqrog'i minbar ohanglarini olib kirdi. Bu she'rlar o'zining ochiq ma'nosi, yorqinligi, oddiyligi, ta'sirchanligi, musiqaviyiliqi bilan ajralib turadi. 1914 yilda yozilgan "Millatga xitob" she'ri "Sharqiy kuylardan "So'yla bir ko'rgi arab" kuyiga solinub yozildi" deb izohlangan. Sharqiy kuylar deb Avloniy vaqtida xalqimiz orasida ommabop bo'lgan turkcha marshlar nazarda tutilgan.

Adib asarlaridan bilish mumkinki, uning badiiy-estetik qarashlari nihoyatda yuksak bo'lganini, xususan, yoshlikdan musiqa san'atiga ixlos qo'yanini va bu ixlos ilk bor teatrchilik harakatiga aralasha boshlagan kezlarida avj olganini ta'kidlashimiz o'rinnlidir[8].

O'zbek xalqi ham boshqa millatlar kabi o'zining milliy musiqa madaniyati va san'atiga ega. "Bu umrboqiy san'atning bizgacha etib kelishida beqiyos xizmat ko'rsatgan ulug' shoir va mutafakkirlar, bastakor va sozandalar"[9,102] singari Abdulla Avloniying ham o'z o'rni va roli borligini e'tirof etish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Avloniy har bir she'rning so'ngida uning vazn ko'rsatkichlarini qayd etib o'tgan. U g'azallar tahlilida she'riy vazn ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak deydi. Uning fikricha, g'azaldagi musiqiylik, ravnlik mana shu vazn tufayli ro'yobga chiqadi. Shundagina she'r mazmuni to'liq o'zlashtiriladi, uning ta'sir kuchi oshadi va undagi g'oja o'quvchi ongiga samarali ta'sir etadi.

Avloniy musiqa san'atining inson tarbiyasida muhim o'rin tutishi, ayniqsa yoshlarni tarbiyalashda uning imkoniyatlari keng ekanligini jadid ziyyolilari kabi teran anglab etgan. Uning 1922 yilda "Inqilob" jurnalining birinchi sonida bosilgan "Sanoyio nafisa" maqolasi fikrimizni har jihatdan ifodalaydi.

"Bargi daraxton sabz dar nazari hushyor,

Har varaqash tabiatni ro'zg'or"[10,235],

Avloniy taqlidchilikdan asta-sekin haqiqiy ijod davriga o'tishni to'g'ri ta'kidlab, "avvalgi san'atlariga qaraganda so'nggi san'atlar muhimroq va yaxshiroq bo'lib, mutaassir bo'lmoq har kimga nasib bo'lmas edi", - deydi. Binobarin, u haqiqiy san'atkortlik har kimning qo'lidan kelmasligini, buning uchun insonga chin ma'nodagi iste'dod lozimligini aytadi. Taqliddan og'zaki ijodga, so'ng haqiqiy san'atkortlikka o'tish zamonini, ya'ni adabiyot davri haqida fikr yuritar ekan, har ikki holatda musiqanining vazifasini asosan to'g'ri belgilaydi. U "shodlik kunlarin(i) shodlik qo'shiq bilan tasvir qilsalar, g'amlik kunlarin(i) qayg'ulik ashulalari bilan izhor qilar edilar", - deydi. YA'ni, musiqanining faqat maishiy tomonini emas, balki falsafiy jihatlarini ham unutmaydi.

Avloniy eng birinchi musiqiy tovushlar inson ovozi asosida shakllanganligi va ovozlarda dastlab aks etgan inson go'zalligi, tabiat go'zalligi, insonlar o'tasidagi ishq-muhabbat, his-tuyg'ular bilan bog'liqligini aytib, musiqanining paydo bo'lish sabablarini tahlil qilib beradi. Shuningdek, Abdulla Avloniy milliy musiqa cholg'u sozlarining yaratilishi haqida ham o'z fikrlarini beradi. "Daraxtlarning shoxlariga ilinib qolgan hayvonlarning ichaklarin havoning ta'siri bilan ko'rib, shamolning ta'siri bilan "ting'ir-ting'ir" qilgan tovushi ko'ngillariga o'turdi, xush keldi. O'zlarining ashula va qo'shiqlariga jo'r-jo'ravozlik qilmoq uchun hayvon ichaklaridan "tor" yasab, musiqiy asboblarin yuzaga chiqardilar", deb musiqa san'ati o'z taraqqiyotida yangi bir bosqichiga o'tganini ta'kidlaydi.

Adib musiqani nafaqat san'at, balki falsafa, din, tibbiyat va umuman koinot bilan bog'liq bo'lgan yaxlit bir hodisa sifatida o'zaro mutanosiblikda idrok etadi. Uning musiqa inson ruhiga, ma'naviyatiga qanchalik kuchli ta'sir ko'rsatishi, ta'lim-tarbiyada muhim rol o'ynashi haqidagi fikr va tushunchalari barcha jadid ziyyolilariga xos bo'lib, qadimiy Sharq musiqashunoslarining fikrlariga monand keladi.

O'zbekistonning turli viloyatlarida xalqimizning marosim qo'shiqlari orasida "Yor-yor"lar juda keng tarqalgan bo'lib, o'ziga xos usulda ijro etilgan. Aslida to'y marosimi bilan bog'lig' bo'lgan, "Yor-yor" qo'shiqlarining kuyi lirik ohangga ega bo'lib, xalqning kundalik turmushidagi har xil dolzarb mavzularni qiyoslash usulida qamrab oladi. Biz buni hozirgi kunda ham kuzatishimiz mumkin.

"Yor-yor" qo'shiqlarining o'ziga xos ijro uslublari mavjud. Avloniy "Yor-yor"ning qiyoslash, taqqoslash usulidan va ohangidan ham ustalik bilan foydalangan. Shu sababli uning bu janrda yozilgan ijtimoiy she'rlari zamondoshlari qalbi va ongiga musiqiy ohanglar vositasida etib borgan. Binobarin o'quvchi va tinglevchini ma'naviy tarbiyalashda muhim tarbiyaviy vazifani bajargan, desak sira mubolag'a bo'lmaydi[11].

Yuqorida aytiganlardan fikrlardan kelib chiqib, Abdulla Avloniy jadidchilik faoliyatining jamiyat ma'naviy hayotidagi roli hamda uning din va ilm-fan faoliyatni o'rnnini aniqlash maqsadida 250 nafar respondentlar ishtirokida so'rovnomalar amalga oshirildi.o'tkazildi.

1. Abdulla Avloniying "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan so'zları o'z davrida qanday ahamiyatga ega bo'lgan?

A) Abdulla Avloniying "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan so'zları o'z davrida yoshlarni tarbiyalash uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan. 150 nafar, 60 % ni tashkil etdi.

FALSAFA

B) Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasi" degan so'zlariga o'z davrida faqat ilm kishilar e'tibor qaratganlar. 72 nafar, 28 % ni tashkil etdi.

V) Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasi" degan so'zlariga o'z davrida kishilar deyarli e'tibor bermaganlar, chunki o'sha davrda hamma chirikchilik bilan ovora edilar. 30 nafar, 12 % ni tashkil etdi.

2. Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy guliston yohud axloq" kabi asarlarda qanday muammolarni echimini topishga harakat qilgan?

A) Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy guliston yohud axloq" kabi asarlari o'z davrida jadid maktablari uchun qo'llanma sifatida foydalanilgan. 172 nafar, 68 % ni tashkil etdi

B) Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy guliston yohud axloq" kabi asarlari ta'lif va tarbiya haqida yozilgan risolalar. 62 nafar, 24 % ni tashkil etdi.

V) Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy guliston yohud axloq" kabi asarlari haqida eshitmaganman. 18 nafar, 8 % ni tashkil etdi.

3. Abdulla Avloniy musiqa san'ati, teatr san'ati, folklor san'atiga qo'shgan xissasini bilasizmi?

A) Ha, bilaman, "Turon" truppasi musiqiy yo'llanishini shakllanishida, shuningdek, "Adabiyot yohud milliy she'rlar", "Mardikorlar ashulasi" to'plamlarida o'zbek she'riyatining an'anaviy janrlarini mazmunan va shaklan boyitishda, "Yor-yor"ning qiyoslash, taqqoslash usulidan va ohangidan ustalik bilan foydalangan. 152 nafar, 61 % ni tashkil etdi.

B) Abdulla Avloniyning yozgan asarlari haqida juda kam bilaman. "Adabiyot yohud milliy she'rlar", "Mardikorlar ashulasi" to'plamlarini eshitganman. 64 nafar, 26 % ni tashkil etdi.

V) Abdulla Avloniyning yozgan asarlari va o'zi haqida ham qiziqib ko'rмаганман. 32 nafar, 13 % ni tashkil etdi.

Ma'lumki o'sha davrda ko'pgina yangi usuldagi maktablarda, o'quv kurslarida, musiqa darslari o'qitilgan va teatr badiiy havaskorligi rivojlantirilgan. Bunday muassasalarda Tavallo, Hoji Muin va Abdulla Avloniyning axloq va odob, Vatanga muhabbat haqidagi she'rlari deklamatsiya qilingan hamda ashula sifatida aytilgan. "Sadoyi Turkiston" gazetasining 1914 yil 20 iyun sonida bosilgan "Andijonda muslimoncha teatr" maqolasi fikrimizni tasdiqlaydi. Maqolada jumladan shunday deyiladi: "Teatrda so'ng erli musiqa bilan hamma o'ynovchilar sahnada hur ila Abdulla Avloniyning "O'qisin yoshlarimiz" asarini o'qib, xalqning olqishi va ofarinlariga musahhar bo'ldilar". Shunga o'xshash xabarlarni 1914-1916 yillardagi Toshkent va Farg'ona matbuotida juda ko'p uchratish mumkin. Umuman yangi mazmundagi she'riy asarlarni ma'lum kuylarga solib ijro etish o'sha davr madaniy hayotida keng miqyosda avj olgani kuzatiladi.

Tariximizning fojeali hodisalaridan biri 1916 yilning yozida rus podshosining Sibirga mardikorlikka olish haqidagi farmonining chiqishi bo'lgan. Ma'lumki bu tadbir o'lkamizning barcha hududlarida xalqning g'azabini, noroziligini qo'zg'ab, qo'zg'ololnarga olib keldi. Bu esa xalq orasida sodda va ommabop kuylarga solinib mardikorlikka, oq podshoga qarshi qaratilgan qo'shiqlar keng tarqalib ketishiga sabab bo'ldi.

Jadid ziyolilari mustamlakachilar uyuştirgan beayov qirg'inlarni norozilik bilan qarshi oladilar. Abdulla Avloniy ham "Mardikorlar" ashulasi turkumini yaratib, mardikorlik poeziyasiga o'z hissasini qo'shadi. To'plamga "Bir mardikorning otasi o'g'liga aytgan so'zlari", "Onasining o'g'liga aytgan so'zlari", "O'g'lining onasiga aytgan so'zlari", "Xotuniga aytgan so'zi" kabi ta'sirli, dardga to'la she'rlari kiritilgan bo'lib, ular Avloniy tomonidan ohangdor va ashulabop qilib yozilgan.

Avloniy 1917 yil fevral inqilobini Turkiston xalqlari uchun erk va ozodlik olib keladi, degan orzular bilan kutib olib, bu haqda ko'p marshlar ("sharqiylar") yozadi. Ammo u ko'pchilik ziyorolar qatori xalqining, Vatanining "porloq kelajagiga" ishonchini juda tez yo'qotadi va "hurriyat nomin eshitdim, lek adolat ko'rmadim" - deb iztirob chekadi.

Qilur bizlardan, ey ahli Vatan, faryod Turkiston,

Hama obod bo'ldi, bo'lmadi obod Turkiston[12,118].

O'z manfaatlarini ko'zlamasdan vatanini dunyoning eng taraqqiy etgan davlatlar qatorida ko'rish orzusi bilan yashagan shoir madaniyat va san'at orqali har bir odamning yuragiga yo'l topa olish zarurligini tushungan va targ'ib etgan. Avloniy "Madaniyat to'lqinlari" maqolasida ta'kidlaganidek, - "Hozir yarim asrdurki madaniyat bizni orqamizdan quviyur. Biz qirdan-qirga qochurmiz, qarshimizda maishat mashaqqatlari chiqub hujum qilur, o'ngimizdan bilimsizlik va jaholat

kelub jonlarimizni siqur, so'ngimizdan musriflik, faqirlik, bid'atlar chiqub yo'limizni to'sur". Bu holdan qutilish yo'lida "faqat birgina chorasi bordurki madaniyatni qabul qilmak va haqiqiy madaniyatga kirishmak lozim".

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'z davrida jadidlar ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida maydonga chiqdilar. Xalq esa ularda o'z himoyachilarini xis etgan. Jamiatda jadidchilik harakatining ta'lim-tarbiya merosi keng qamrovli islohot va tashabbuslarning milliy-madaniy yuksalishni belgilovchi ijtimoiy-falsafiy omillari aniqlandi.

Ayniqsa, Turkistonning barcha o'lkalarida jadidchilik harakati ham siyosiy ma'rifatparvarlikdan Jadid firqasi darajasiga ko'tarilib, barcha xalqlarning taqdirini o'ylab ish ko'radigan demokratik jarayonning eng savodli, oliyanob namoyondalariga aylandilar. Shu bilan birga jadidchilik harakati ijtimoiy innovatsiya asosida ozodlik va istiqlol uchun kurashi mahalliy aholining barcha tabaqalarini savodxon qilish natijasida milliy davlatning tiklash jadidlarning, shu jumladan, Abdulla Avloniying ham muhim g'oyasi bo'lgan. Binobarin shoir ana shu madaniyatni barpo qilishda ta'lim-tarbiya, teatr va musiqa san'atining o'rni va roli katta ekanini chuqr anglagan va uni xalq ongiga etkazishga intilgan. Uning falsafasidan millat madaniyati, ta'lim-tarbiyasi, teatr va musiqa san'ati xaqidagi fikrlari, qarashlari o'rin olganligi ana shundan dalolatdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Ш.Юсупов муҳаррирлiği остида. –Тошкент: Маънавият. 2004. –Б. 290
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият. 2008. –Б. 62
3. Ю.Тоҳирий. Доно мураббий. Тошкент оқшоми газетаси, 1966 йил, 10 ноябрь
4. Авлоний А. Танланган асарлар. 2-жилдлик. 1-жилд. –Тошкент: Маънавият. 2020. –Б. 10
5. Абдулхайров Б. Миён Бузрук – жадид драматургияси ва театри тадқиқодчиси. –Тошкент: Фан нашриёти 2009. –Б. 94
6. Раҳмонов М. Ўзбек театри тарихи. –Тошкент: Фан. 1968. –Б.334
7. Авлоний А. Танланган асарлар. 2 жилдлик. 2-жилд. –Тошкент: Маънавият. 1998. –Б. 221
8. Бойназарова Г. Абдулла авлонийнинг мусиқа санъатида тутган ўрни. Нукус давлат университети. Таълим муассасидаги тарбия. Илмий журнал.
9. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. –Тошкент: Ўзбекистон. НМИУ. 2019 –Б. 102
10. Авлоний А. Танланган асарлар. 2 жилдлик. 2-жилд. –Тошкент: Маънавият. 1998. –Б. 235
11. Бойназарова Г. Абдулла авлонийнинг мусиқа санъатида тутган ўрни. Нукус давлат университети. Таълим муассасидаги тарбия. Илмий журнал.
12. Авлоний А. Танланган асарлар. –Тошкент: Маънавият. 2 жилдлик. 1-жилд. 2020. –Б. 118